

# Jahon kimyo sanoati xabarlari: Hindiston o'zini o'zi ta'minlashga intilayapti

// 31.07.2026

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/Jahon20260731>

Mamlakat karbamid ishlab chiqarish sohasi uchun yangi investitsiya siyosatini (NIPU-2026) tasdiqladi. Bu so'nggi 14 yil ichida tarmoq qonunchiligida amalga oshirilgan ilk yirik yangilanish hisoblanadi. Ushbu siyosat orqali Hindiston azotli o'g'itlar importiga bo'lgan qaramlikni to'liq bartaraf etishni maqsad qilgan.



Xususan, mamlakat hukumati 8-9 ta yangi gaz-kimyo zavodini ishga tushirish hisobiga karbamid ishlab chiqarish quvvatlarini qariyb 10 million tonnaga oshirishni rejalashtirmoqda. Bu ichki bozordagi mahsulot taqchilligini bartaraf etish imkonini beradi. Hindiston Kimyo sanoati va o'g'itlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, har bir yangi korxona yiliga 1,27 million tonnadan ortiq karbamid ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ladi.

EY India konsalting kompaniyasi hisob-kitoblariga ko'ra, import qilinadigan har bir 1 million tonna karbamidni mahalliy ishlab chiqarish bilan almashtirish mamlakatga har yili 300 milliondan 500 million AQSH dollarigacha bo'lgan valyuta zaxiralarini tejash imkonini beradi.